

Zamonaviy iste'molchilar huquqlari 1962-yilda AQSh Prezidenti Jon Kennedining mashhur nutqi asosida shakllangan. Jon Kennedining nutqi nafaqat AQShda, balki dunyoda iste'molchilarni himoya qilishga bag'ishlangan me'yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish uchun asos bo'lgan[1].

ISTE'MOLCHI –

xalqaro xususiy huquq munosabatlarining ishtirokchisi sifatida

[1] International Consumer Law: What Is It All About? M. Durovic1 4 July 2019 / Accepted: 16 October 2019 /Published online: 21 December 2019.

Hozir rivojlanayotgan dunyoda shartnomalarning chegara bilmasligi, ushbu shartnoma orqali tovarlar yoki xizmatlar bir davlat chegarasidan ikkinchisiga to'siqlarsiz o'tishi iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. Demak, iste'mol shartnomasi, uning taraflari, iste'molchi, iste'molchilarning belgilari kabi ijtimoiy munosabat ishtirokchilarini aniqlashtirish lozim bo'ladi.

Iste'molchilar ishtirokidagi munosabatlarni aniqlashtirish orqali tartibga solinayotgan munosabat aniqlashtiriladi. Iste'mol shartnomasi sotuvchi va xaridor o'rtasida shaxsiy, oilaviy va uyda foydalanish uchun xizmatlar va tovarlar bilan ta'minlash maqsadida tuziladi[2]. O'zbekistonning "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida asosiy tushunchalar berilgan, unga ko'ra "shartnoma — tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv" sifatida tariflangan[3].

Iste'molchilar ishtirok etadigan munosabatlarda ishlab chiqaruvchi, sotuvchi va yetkazib beruvchi ham qatnashadi. Ispaniyaning "Iste'molchilar va foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunida professional tomon tadbirkor deb yuritiladi. Gretsiyada "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonun professional tomonni yetkazib beruvchi sifatida belgilaydi. Yaponiyaning "Iste'molchi shartnomalari to'g'risida"gi qonunda professional tomon tadbirkor sifatida yoki tadbirkorlik maqsadlarida shartnoma tarafi bo'lgan yuridik, jismoniy shaxs yoki shaxslar birlashmasi sifatida belgilanadi[4]. Turkiyada "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunda professional tomon deb sotuvchi va yetkazib beruvchi tushuniladi. Sotuvchi va yetkazib beruvchi – savdo yoki kasbiy faoliyati bilan bog'liq maqsadlarda iste'molchilarga tovarlar sotadigan, xizmat ko'rsatadigan har qanday davlat, jismoniy yoki yuridik shaxslar sifatida belgilanadi.

Hozir xalqaro xususiy huquqda iste'molchining yagona va keng qamrovli ta'rifini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Iste'molchiga ta'rif berish orqali huquqiy munosabat ishtirokchilari va huquqiy munosabatlarga aniqlik kiritiladi.

Iste'molchi so'zi 1962-yilda AQShda ommaviylashdi. Iste'molchilar huquqlarining rasmiy tarifi yaratildi. 1975-yilda Yevropa hamjamiyati iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalarga alohida urg'u bera boshladi[5]. Iste'molchi qiyosiy huquqda juda xilma-xil ta'riflangan.

Iste'molchi kim ekanligini aniqlash uchun uchta asosiy mezondan foydalanish mumkin, chunki bu mezonlar alohida yoki kombinatsiyalangan holda ishlatilishi mumkin:

- shaxsning turini hisobga olgan holda, ya'ni ayrim davlat qonunlarida faqat jismoniy shaxslar iste'molchi bo'la olishlari belgilangan. Davlatlarning ba'zilarida esa jismoniy shaxslar bilan bir qatorda yuridik shaxslar ham iste'molchi hisoblanadi. Yuridik shaxslar ma'lum bir asosga ko'ra iste'molchi bo'lishi mumkin. Ya'ni ba'zi mamlakatlarda uyushma iste'molchi deb hisoblanadi. Lekin korporatsiya bundan mustasno. Shuningdek, iste'molchi sifatida yuridik shaxsning ma'lum bir turi ham tan olinishi mumkin;
- tovar yoki xizmatlarni sotib olgan shaxsning xatti-harakatlarini himoya qilish qoidalarini qo'llashni belgilash muhim rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqi qonunchiligi ko'plab huquqiy me'yorlarda iste'molchilar huquqini passiv iste'molchilarga nisbatan qo'llashni cheklaydi.
- ba'zi qonunlar iste'molchilar huquqi doirasida himoya vositalarini qo'llashni aniqlash uchun tovarlarni sotib olish maqsadini ko'rib chiqadi. Ushbu mezonlar shaxsni iste'molchi sifatida baholash imkonini beradi[6].

[1] International Consumer Law: What Is It All About? M. Durovic1 4 July 2019 / Accepted: 16 October 2019 /Published online: 21 December 2019.
[2] Consumer Protection and Private International Law in Internet Contracts REINHARD SCHU 47-bet.
[3] https://www.lex.uz/acts/4704.
[4] https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/3578/en.
[5] International Law and Consumer Protection By Antonella Corradi Published March/April 2021, 1-bet.
[6] consumer protection in international private relations General report. Diego P. Fernández Arroyo, 3-bet.



BMTning “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalari”da iste’molchi atamasi, odatda, fuqaroligidan qat’i nazar, asosan shaxsiy, oilaviy yoki maishiy maqsadlarda harakat qiladigan jismoniy shaxs ekanligi, shu bilan birga a’zo davlatlar muayyan ichki ehtiyojlarni qondirish uchun turli xil ta’riflarni qabul qilishlari mumkinligini tan oladi.

Yevropa Ittifoqida iste’molchi shaxsiy yoki oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun professional yoki tijorat faoliyatidan tashqari maqsadlarda shartnoma tuzadigan jismoniy shaxs sifatida belgilanadi[7]. Ma’lum bo‘lishicha, Janubiy Amerika bloki ushbu Yevropa tushunchasidan tashqariga chiqib, hatto o‘zining normalarida yuridik shaxsni iste’molchi sifatida e’tirof etdi.

Yevropa Ittifoqida iste’molchi bilan bog‘liq shartnomalardan kelib chiqadigan nizolar bo‘yicha xalqaro yurisdiksiya qoidalari Yevropa Ittifoqining 2012-yil 12-dekabrda “Xorijiy sudlarning yurisdiksiyasini, qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risida”gi reglamenti bilan o‘zgartirilgan. Reglamentga ko‘ra iste’molchi — o‘z biznesi yoki kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan maqsadlarda shartnoma tuzadigan shaxsdir. Reglament qoidalari iste’molchi istiqomat qiladigan mamlakatda tijorat yoki kasbiy faoliyatni amalga oshiradigan yoki har qanday usul bilan o‘z faoliyatini shu mamlakat hududiga yoki bir nechta mamlakat hududiga, shu jumladan hududni boshqaradigan shaxs bilan tuzilgan barcha shartnomalarga nisbatan qo‘llanadi[8].

> Yevropa ittifoqining “Iste’molchi nizolari bo‘yicha muqobil nizolarni hal qilish va nizomga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi direktivasida iste’molchi tushunchasi o‘z savdosi, biznesi, hunarmandchiligi yoki kasbidan tashqarida harakat qiladigan jismoniy shaxslarni qamrab oladi.

Yevropa Ittifoqining “iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi direktivasiga ko‘ra, iste’molchi ushbu yo‘riqnomada nazarda tutilgan shartnomalarda o‘z savdosi, biz-

[7] Private International Consumer Law in MERCOSUR: The Infuence of European Regulations on Its Creation L. Klein Vieira, 124-bet
[8] Международная подсудность споров из договоров с участием потребителя. Р.С. Резник аспирант кафедры международного публичного и частного права Национального исследовательского университета «Высшая школа экономики».

nesi, hunarmandchiligi yoki kasbidan tashqarida bo'lgan maqsadlarda harakat qiladigan har qanday jismoniy shaxs sifatida ta'riflangan. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, shaxs iste'molchi hisoblanishi uchun ikkita — subyektiv va funksional mezon jamlangan bo'lishi kerak. Iste'molchi jismoniy shaxs bo'lishi (subyektiv mezon) va u noprofessional maqsadlarda harakat qilishi kerak (funksional mezon).

Yevropa Ittifoqining "Iste'molchi nizolari bo'yicha muqobil nizolarni hal qilish va nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi direktivasida iste'molchi tushunchasi o'z savdosi, biznesi, hunarmandchiligi yoki kasbidan tashqarida harakat qiladigan jismoniy shaxslarni qamrab oladi. Biroq agar shartnoma qisman shaxsning savdo doirasidagi va qisman savdo doirasidan tashqaridagi maqsadlar uchun tuzilgan bo'lsa (ikki maqsadli shartnomalar) va savdo maqsadi yetkazib berishning umumiy kontekstidan ustun bo'lmaydigan darajada cheklangan bo'lsa, u ham iste'molchi sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunda, a'zo davlatlar qonunchiligida imkon qadar bir xil standartlarni o'rnatishga harakat qilsalar ham, iste'molchi tushunchasiga har xil yondashuvlar mavjud. Bu direktivani buzish emas, lekin Yevropa Ittifoqi qonuni a'zo davlatlarga milliy qonunchilikda iste'molchi tushunchasini kengaytirishga imkon beradi. Belgiyaning Iqtisodiy qonunlar kodeksining VI va VII kitoblarida iste'molchi tijorat, sanoat, hunarmandchilik yoki erkin faoliyati doirasidan tashqari maqsadlarda harakat qiladigan har qanday shaxs deb yozilgan. Fransiya iste'mol kodeksida iste'molchi – tijorat, sanoat, hunarmandchilik yoki qishloq xo'jaligining bir qismi bo'lmagan maqsadlarda harakat qiladigan har qanday jismoniy shaxs deb tushuntirilgan. Germaniya Fuqarolik kodeksining 13-moddasiga ko'ra, iste'molchi — biznes yoki kasbiy faoliyatiga tegishli bo'lmagan bitim tuzadigan har qanday jismoniy shaxsdir. Bundan tashqari, nemis sud amaliyotiga ko'ra, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi normalar ma'lum darajada o'z-o'zini ish bilan ta'minlamaydigan xodimlarga ham tegishli.



Italiyaning iste'molchi kodeksida ishlatiladigan ko'plab atamalar, masalan, "iste'molchi" va "ishlab chiqaruvchi" Yevropa Ittifoqi direktivalarining tariflarini aks ettiradi. Italiyaning iste'molchi kodeksining 3-(a) bandi iste'molchi yoki xizmatlardan foydalanuvchini savdo, biznes, hunarmandchilik yoki kasb-hunardan tashqari maqsadlarda harakat qiladigan jismoniy shaxs sifatida belgilaydi. Shuningdek, bu kodeksning 5-moddasiga ko'ra, iste'molchi tijorat ma'lumotlarining qabul qiluvchisi bo'lgan har qanday jismoniy shaxsdir. Bundan tashqari, kodeksning 83-moddasida "turizm xizmatlari iste'molchisi" ta'rifi mavjud bo'lib, iste'molchilarning bir turi sifatida alohida ko'rsatilgan.

Avstriya va Chexiya qonunchiligiga ko'ra, yuridik shaxs mahsulot sotib olsa yoki xizmatdan noprofessional maqsadlarda foydalansa, iste'molchi ham bo'lishi mumkin. Fransuz yurisprudensiyasi jismoniy va yuridik shaxslarni, agar ular noprofessional maqsadlarda harakat qilsalar, iste'molchi deb hisoblaydi. Masalan, ish joyida signalizatsiya tizimini o'rnatmoqchi bo'lgan va buning uchun shartnoma tuzgan riyeltorlik agentligi mijoz hisoblanadi.

Braziliyaning iste'molchilar huquqlarini himoya qilish kodeksining 2-moddasida iste'molchi deganda mahsulot yoki xizmatning yakuniy oluvchi iste'molchisi tushuniladi[9].

Xitoyning "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 2-moddasiga binoan iste'molchi tushunchasi kundalik iste'mol

[9] Защита прав потребителей: в поисках оптимальной модели: монография / П.Д. Багрянская, М.О. Дьяконова, П.П. Кабытов и др.; отв. ред. С.А. Синицын, М.Л. Шелютто; Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации. – М.: ООО «ЮРИДИЧЕСКАЯ ФИРМА КОНТРАКТ», 2021.

ehtiyojlarini qondirish uchun tovar va ishlarni sotib olgan shaxs sifatida ta’riflangan. Ushbu qonunning 2-moddasida iste’molchi faqat jismoniy shaxsmi, yuridik shaxs iste’molchi sifatida ko‘rib chiqiladimi yoki yo‘qmi, aniqlamaydi. Garchi ba’zi ichki me’yoriy-huquqiy hujjatlar moddiy huquqda iste’molchi sifatida yuridik shaxslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z ichiga olgan bo‘lsa-da, xalqaro xususiy huquqda iste’molchi tushunchasi nuqtayi nazaridan Xitoy qonunlari to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonun 42-moddasida faqat jismoniy shaxslar iste’molchi sifatida ko‘rib chiqilishini ko‘rsatadi[10]. Xitoyda qishloq xo‘jaligi ishchilari yoki fermerlar iste’molchi sifatida e’tirof etiladi.

“Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi ishtirokchi davlatlarining iste’molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida hamkorlik qilishining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi bitimning 1-moddasida “iste’molchi — tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda faqat shaxsiy (maishiy) ehtiyoj uchun tovarga (ishga, xizmatga) buyurtma berish, sotib olish niyatida bo‘lgan yoki buyurtma bergan, sotib olgan yoxud foydalanayotgan fuqaro” sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 1-moddasida iste’molchi — foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs) ekanligi belgilangan. Bundan tashqari, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunning 8-moddasida elektron tijoratda tovarlarni sotuvchi, xizmatlarni yetkazib beruvchi yoki ishlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, shuningdek elektron tijoratda tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xaridori, iste’molchisi sifatida ishtirok etuvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar elektron tijorat ishtirokchilari[11] sifatida ko‘rsatilgan.

Ushbu normadan anglash mumkinki, yuridik shaxslarga ham iste’molchi sifatida ishtirok etish huquqi berilgan. Bu esa o‘z navbatida, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasidagi iste’molchi ta’rifi hamda “Elektron tijorat to‘g‘risida”dagi qonunning 8-moddasida yuridik shaxs ham iste’molchi deb e’tirof etilishi kollizion normalarni vujudga keltiradi. Kollizion normalarni tuzatish uchun “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasini quyidagi shaklda kengaytirish lozim:

“Iste’molchi – foyda chiqarib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda shaxsiy iste’mol yoki boshqa maqsadlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buyurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxsdir”.

Bundan tashqari “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasidagi shartnoma tushunchasini “iste’mol shartnomasi — shaxsiy, oilaviy va uyda foydalanish uchun tovarni olish-sotishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to‘g‘risida ma’lumotlar ko‘rsatilgan, iste’molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o‘rtasidagi og‘zaki yoki yozma kelishuvdir” deb bayon etish shartnomaning iste’molchiga tegishli ekanini aniqlashtiradi.

Hozir xalqaro xususiy huquqda iste’molchining yagona va keng qamrovli ta’rifini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Iste’molchiga ta’rif berish orqali huquqiy munosabat ishtirokchilari va huquqiy munosabatlarga aniqlik kiritiladi. Iste’molchi so‘zi 1962-yilda AQShda ommalashdi. Iste’molchilar huquqlariga rasmiy ta’rifi berildi. 1975-yilda Yevropa hamjamiyati iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq masalalarga alohida urg‘u bera boshladi.

Raxmatilla DEHQANOV,
Yuristlar malakasini oshirish markazi katta o‘qituvchisi

[10] pure.rug.nl/ws/portalfiles/portal/787083383/Consumer_Jurisdiction_and_Choice_of_Law_Rules_in_European_and_Chinese_Private_International_Law_ 21_Sep_2023.pdf
[11] https://lex.uz/docs/6213382.